

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



2018 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Jalb etilgan
mablag'lar hisobidan:
5 381,1 mlrd. so'm

Jami asosiy kapitalga
investitsiyalar hajmi:
10 039,0 mlrd. so'm

Asosiy kapitalga Investitsiyalar

O'z mablag'lari hisobidan:
4 657,9 mlrd. so'm

O'sish surati:
138,0 %

Joriy davrda 10 039,0 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 53,6 %i jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 46,4 %i moliyalashtirildi.

Markazlashgan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan:

Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan:

Respublika byudjeti:
500,0 mlrd.so'm

Aholi mablag'i :
630,5 mlrd.so'm

Davlat maqsadli
jamg'armalari:
138,5 mlrd.so'm

Korhona mablag'i:
4 027,9 mlrd.so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy
kreditlar:
82,0 mlrd. so'm

Tijorat banklari
kreditlari va boshqa
qarz mablag'lari:
2 519,7 mlrd.so'm


Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi:
1 110,6 mlrd.so'm

To'g'ridan-to'g'ri va
boshqa xorijiy
investitsiya va
kreditlar:
1 029,8 mlrd.so'm

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 40,1 %i korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 25,1 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar


10,3 %, aholi mablag'lari 6,3 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 11,1 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 0,8 %, Respublika byudjeti 4,9 % va Davlat maqsadli jamg'armalari 1,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)






Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)




	mIrd.so'm	o'sish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	10 039,0	138,0	100,0
Republika byudjeti	500,0	133,8	4,9
Davlat maqsadli jamg'armalari	138,5	56,1	1,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1110,6	10,2 m.	11,1
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	82,0	29,3	0,8
Korhona mablag'lari	4027,9	121,6	40,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	2519,7	180,6	25,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1029,8	152,7	10,3
Aholi mablag'i	630,5	83,6	6,3

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati 2,2 martta ko'payish Sergeli tumanida kuzatildi. Bu asosan "Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti" va "O'zbekiston rangli metal parchalari chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi"ni modernizatsiyalash bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Yunusobod tumanida ham 74,8 foizga o'sish kuzatilib, ushbu hududdagi "KAPITALBANK" ATB yangi bank dasturlari uchun server xarid qilinganligi, moliya vazirligi qoshidagi respublika yo'l jamg'armasi esa yo'llarni rekonstruksiya

qilganligini keltirish mumkin. Yashnobod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 marttadan ortiq o'sishi asosan chet el investitsiyasi ishtirokidagi "TOSHKENTVINO KOMBINATI" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiya-larini rivojlantirish vazirligi elektromagnit moslashuvi markazi" DUKning internet va aloqa sifatini yaxshilash uchun texnikalar sotib olish bilan bog'liq.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hudular kesimida Sergeli tumanı yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,4 % ni o'zlashtirildi.

Shuningdek Yunusobod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan investitsiyalar hajmi bo'yicha shaharda 17,4 %ni, Shayxontoxur tumanidan keyingi o'rinda 9,5 % ni

tashkil etmoqda.

Mirobod va Yashnobod tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 9,0 va 8,3 %ni tashkil etdi.


Bektemir hamda Uchtepa tumanlarida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining Shahardagi ulushi 2,8% va 4,0%ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 4140,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina,

uskuna va inventarlarga investitsiyalar 5461,5 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 437,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Tumanlar kesimida texnologik tarkibi




—♦— boshqalar

—■— mashuna, uskuna, inventar

—▲— qurilish-montaj ishlari



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3 827,2 mlrd.so'mni tashkil etdi, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 38,1 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2 663,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va Respublikada jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 26,5 %ini tashkil etdi. Qolgan 35,3 %,

yani 3 548,2 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olmazor tumanida kuzatilib, u 48,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, Mirobod tumanida 48,0 %, Yashnabod tumanida 47,4 %, Yunusobod tumanida 45,5 % va Chilonzor tumanida 45,3 %ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichning eng past darajasi Bektemir u 38,1 %ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida sanoat yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2384,3 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 23,8 %i o'zlashtirilgan.

Sanoat tarmog'ida tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Mashinasozlik majmuasi 551,6 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,5 %);
- Oziq-ovqat sanoati 485,3 mlrd.so'm (4,8 %);
- Oynasozlik va farfor-foyans sanoati 108,9 mlrd.so'm (2,9 %).

Undan keyingi o'rinda transport tarmog'i 1936,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,3 %i o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd.so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
Toshkent sh.	1 111,8	778,6	333,2	1 029,8	778,6	251,2
tumanlar:						
Bektemir	8,1	8,1	-	8,1	8,1	-
Mirzo Ulug'bek	44,0	44,0	-	44,0	44,0	-
Mirobod	43,3	43,3	-	43,3	43,3	-
Olmazor	15,8	13,8	2,0	15,8	13,8	2,0
Sergeli	1,0	0,9	0,1	1,0	0,9	0,1
Uchtepa	94,6	12,6	82,0	12,6	12,6	-
Chilonzor	7,1	5,2	1,9	7,1	5,2	1,9
Shayxontoxur	250,5	250,5	-	250,5	250,5	-
Yunusobod	530,6	302,9	227,8	530,7	302,9	227,8
Yakkasaroy	87,1	68,6	18,4	87,0	68,6	18,4
Yashnobod	29,7	28,7	1,0	29,7	28,7	1,0



Obyektlarni ishga tushirish

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 303,5 ming kv.m, bo'lgan 1109 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Sergeli tumanida ishga tushirilgan 69,1 ming kv.m. va u shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 22,8 %ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Yunusobod, Olmazor tumanlari egallagan bo'lib, shahar bo'yicha

ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 22,7 % va 10,0 %ini tashkil etishgan.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

Sh.Yarashov

(0371) 230-88-18